

TANZIMAT DAVRIDA MAORIF FAOLIYATI

O‘zMU Tarix fakulteti Tarix yo‘nalishi

I bosqich magistranti

Xurramova Komila Baxrom qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada usmonlilar davlatida “Tanzimat” davridagi eng muhim islohotlardan biri ta’lim sohasi haqida ma’lumot beradi. Unda ta’lim haqidagi qarorlar, maktablar, qizlar va o‘g‘il bolaalar uchun tashkil etilgan maktablar, ta’lim tizimidagi qonunlari hamda ixtisoslashgan maktablar, xususiy maktablar va boshqalar haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Tanzimat, Midhat Podsho, maktab, qaror, Nizom, ta’lim, “Maarif-i Umumiye Nizomnomasi” (“Umumiy maorif nizomnomasi”), “Ta’lim to‘g‘risidagi nizom” Enderun, Haram, qizlar maktablari va boshqalar.*

Barcha davlatlarda bo‘lgani kabi Usmonlilar davlatida ham maorif, ta’lim sohasida ham bir qancha o‘zgarishlar va yangiliklar amalga oshirilgan. Usmonli ta’lim tizimi Tanzimat davrida biroz o‘zgachalik bilan namoyon bo‘ldi. Masalan, Usmonli davlati Tanzimat davriga qadam qo‘yar ekan, dastlab ta’lim muassasalari joriy etishga harakat qildi. Ular o‘rta va oliy ma’lumot beruvchi madrasalar, boshlang‘ich ta’lim beruvchi boshlang‘ich maktablar, Enderun, saroy maktabi, oz sonli harbiy texnikumlardan iborat. Bu maktablar odatda bir-biridan uzilib qolgan va alohida vazirliklar qoshida ta’lim va o‘qitish xizmatlarini ko‘rsatishga harakat qilishadi. Tanzimat davri ta’limi birinchi o‘ttiz yil 1869-yilda Xalq ta’limi to‘g‘risidagi Nizom nashr etilgunga qadar mutlaqo tizimsiz edi. Ta’lim tashkiloti ham ikkita alohida markazdan (Mekotib-i Umumiye Vazirligi va Majlis-i Umur-u Nafia tomonidan) boshqariladi, biri vazirlik bo‘lib, ikkinchisi esa ba’zi hollarda yig‘ilib turadigan nazorat shaklidir. Ushbu o‘ttiz yillik davrda viloyatlarning barchasi uchun mos deb topilgan maktablar soni kam edi. Haqiqiy maktablar tashkil etish 1860-yillardan boshlangan. Boshqacha aytganda, Tanzimat davrining dastlabki yillarida va 1869-yilgi Nizom nashr etilgunga qadar maorif tartibsizlik muhitida bo‘lganligiga guvohi bo‘lamiz. Nizomdan keyingi jarayonlarda esa bir qancha maktablar, jumladan, harbiy va fuqarolik, qizlar va o‘g‘il bolalar maktablari ochiladi. Ularning barchasi ba’zi muvaffaqiyatsizliklar va baxtsizliklarni boshdan kechirishadi. Maktablar ochiladi, ammo tez orada yopilib, nomlari va joylari ham o‘zgaradi. Qayta qurish zarurligini anglagan Tanzimat davri davlat arboblari ta’lim-tarbiyani qonun-qoidalarga bog‘lashga harakat qila boshladilar. Ta’lim sohasida o‘z davriga nisbatan ancha takomillashtirilgan huquqiy me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. 1869-yilda nashr etilgan va qonun kuchiga ega bo‘lgan “Maarif-i Umumiye Nizomnomasi” (“Umumiy maorif nizomnomasi”) orqali ham ta’lim masalalariga jiddiy e‘tibor berilganiga guvohi bo‘lamiz. Shunday qilib, tartibsiz va tizimsiz jarayonlarga qarshi bo‘lgan nizom tartibga solinadi. Biroq, “Maarif-i Umumiye Nizomnomasi” (“Umumiy maorif nizomnomasi”) tomonidan ko‘zda tutilgan maktab ta’limi Usmonli imperiyasi parchalanmaguncha amalga oshirilmadi. Buning isboti sifatida XIX asr oxirida butun mamlakatda atigi 400 ga yaqin o‘rta maktab bo‘lganligi ham ko‘rsatadi. Qishloq qizlarning umumta’lim maktablariga e‘tibor qartilmagan. O‘rta ta’limda “idadi-usul” doimo kun tartibida qoladi. Mazkur Nizomga ko‘ra, o‘rta maktabni tugatib, Dorulfununga borishni istaganlar litseylarga o‘qishga kirishadi. Ushbu maktablar 1000 xonadonli har bir markazda ochilishi ko‘zda

tutilgan. Biroq, 1870-yillarning oxirida ham ikkita o‘rta maktab mavjud bo‘lib, biri Istanbulda, ikkinchisi Ioanninada bo‘lganligi bilan diqqatlidir. 1884-yilda viloyat markazlarida o‘rta maktablar soni 29 taga yetganligi lekin ularning ko‘pchiligiga qiziqish yo‘q ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki, o‘rta maktabni tamomlaganlar davlat idoralarida jozibador lavozimlarni topish uchun qo‘shimcha o‘qishni kerak emas deb hisoblaganlar. Nizomning yana bir yangiligi “Usul-ı Cedid” deb nomlangan yangi o‘qitish usulini ommalashtirishga harakat qilingan. Salim Sobit afandining “Elifba-yi Usmoniy” asari barcha maktablarda haqiqiy darslik sanalgan. Tanzimat davri asosan ozchiliklar va xorijliklar ta’lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan davr edi. Tezlik bilan kengayib borayotgan ushbu maktablarni nazorat qilish uchun 1869 yilgi umumiy ta’lim to‘g‘risidagi nizomga muhim qoidalar kiritilgan. Biroq, Usmonli imperiyasi xorijiy va ozchilik maktablarini nazorat qilishda muvaffaqiyat qozonmagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Islohot deyish mumkin bo‘lgan miqdor va sifat o‘lishiga erishgan ozchiliklar va chet elliklar birgina Tanzimat davrida 300 dan ortiq xususiy maktablar ochdilar. Tanzimat davri ta’limi olib kelgan yangiliklardan biri sifatida “Maktab” deb atalgan muassasaning nafaqat Istanbul uchun zarurligi va butun mamlakat bo‘ylab ta’limga muhtoj yoshlar borligidan kelib chiqib, maktablar birinchi navbatda katta shaharlarda va viloyatlarda ham ochilishi kerak. Boshqacha aytganda, ta’limni ommalashtirish tamoyili tanzimat g‘oyasidir. Bu davrda qizlarning ta’limi, boshlang‘ich maktablari takomillashtirildi, zamonaviy ta’lim uslublari o‘zlashtirildi. Tanzimat bilan g‘arb tilini dasturlarga kiritish qoidaga aylandi. Tanzimatchilar o‘rta va oliy o‘quv yurtlarini madrasa ta’siridan ozod qilib, davlat tasarrufiga o‘tkazishga harakat qilganlar. Madrasalar esa har qanday yangilikka rad javobi bilan chiqdilar. Ular o‘zgarishlarni qabul qilmasdan o‘z borligini himoya qilishni xohlaganlar. Madrasadan alohida maktablar g‘arb shakliga o‘tadi. Oqibatda Tanzimat davrida ta’lim jarayonida birlikka erishib bo‘lmadi.

O‘zgarishlarni yaratish uchun birinchi qadam sifatida asosan jamiyatni o‘zgartirishni qo‘ydilar. Ular ta’lim tashkilotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirmadilar. Bir tomondan, tanzimat jarayonida ta’lim shakli eski va konservativ an‘analardan voz kechgan holda, madrasalarni yevropacha andozaga olib kelish yoki ular bilan bevosita bog‘lash deganidir. Boshqa tomondan, “Tanzimat” harakati ishtirokchilari “Tanzimat farmoni” bilan musulmon bo‘lmagan jamoalarga ham keng imtiyozlar berdi. Jumladan, ularning ta’lim sohasiga ega bo‘lish imkoni yaratildi. Ular uchun quyidagi ta’lim jarayonlari yo‘lga qo‘yildi. Masalan, samarali va keng tarqalgan boshlang‘ich ta’limning yo‘lga qo‘yilishi, raqamlar, ko‘p asrlik ta’lim usullarini yo‘lga qo‘yish, dunyoviy ta’lim va chet tillarini o‘qitishni joriy etish, umumiy ta’lim eshiklarini ochilishi, qizlar uchun kasbga yo‘naltiruvchi maktablar, favqulodda holatlarga tayyorgarlik ishlab chiqarish usullari ishlab chiqildi. Zamonaviy ta’lim uchun o‘quv qurollari daftarlar, qalamlar, o‘quv doskasi uchun maxsus asboblarni ishlab chiqildi. Bularning barchasini birgalikda taqqoslab o‘rganilsa, bugungi turk ta’limining poydevori “Tanzimat” farmonidan keyin qo‘yilgani va ushbu davrni hurmat bilan eslashning ma’noli ekanligi yaxshi tushuniladi.

Usmonlilar imperiyasida ta’lim sohasidagi islohotlar XIX asrda ijobiy darajada rivojlanish sa’y-harakatlari bilan paydo bo‘lganligig guvohi bo‘lamiz. Ta’limdagi yangiliklarni amalga oshirish uchun "Mejlis-i Muvakkat" deb nomlangan tizimni ishlab chiqildi. Bundan tashqari esa “Ta’lim kengashi” tuzildi. Unga prezident saylanadigan tizim bo‘lib, prezident bilan birga jami yetti kishidan iborat assambleya tuzildi. Ushbu kengashga ko‘ra ta’limning birinchi pog‘onasi bo‘lgan boshlang‘ich maktablarni takomillashtirishni butun mamlakat bo‘ylab yoyish hamda umumta’lim maktablari

sonini ko‘paytirish, maktab-internat tashkil etish va ularning asosida nazorat qilish va tashkil etish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi ta’lim kengashini ochish kabi takliflar berildi. Oliy ta’limda esa Usmonli imperiyasining birinchi fanlar akademiyasi, darsliklarni aniqlash va tayyorlash bilan shug‘ullanadigan “Encümen-i Danish” (Ilmiy anjuman) ning tashkil etilishi ham yirik ishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Tanzimat farmoni e’lon qilngandan bir necha yil o‘tib, ya’ni, 1846-yilda diniy ta’limdan tashqari barcha zamonaviy ta’lim jaraonlari hech qanday kamsitishlarsiz joriy etilish jarayoniga e’tibor qaratildi. Biroq, keyinchalik bu maktablar qarovsiz qolib, oliy maktab maqomiga ega bo‘lgan o‘rta maktablar tashkil etildi va uni yoyishga harakat qilindi. Harbiy maktab va madrasalardan tashqari “Rüşdiye” maktablari bo‘lib, u viloyatlarda ochilgan birinchi davlat ta’lim muassasalari edi. Umuman olganda yuqoridagi maktab 1880-yillarga qadar viloyatlarda tashkil etilgan eng yuqori ta’lim bosqichi bo‘lib qoldi. O‘rta maktablarning ta’lim muddati dastlab to‘rt yil bo‘lishi rejalashtirilgan bo‘lsa-da, “Darülmaarif” (Ilm – maorif) ochilgandan keyin olti yil qilib belgilandi. Biroq, 1863-yilda “Nizom” bilan u besh yilga qisqartirildi. 1846-yilgi qoidalarga muvofiq o‘qitiladigan fanlarga o‘zgartirish kiritildi. U Qur‘on e’tiqod, arabcha, hisob va yozuvdan iborat qilib belgilandi.

Tez orada maktablar soni kundan kunga ortib bordi. Bu birinchi marta 1846-yilda tashkil etilgan maktablarga qaraganda, 1852-yilga kelib Istanbulda maktablar soni 10 taga yetdi, 1869 yildan keyin viloyatlarda 87 maktab, Istanbulda 12 maktab faoliyat yuritayotgan edi. Har bir maktabda ta’lim sifati bo‘yicha ancha farq bo‘lgan. Tanzimatning birinchi davriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ta’lim sohasida ham ixtisoslashgan maktablar tashkil etilganiga guvohi bo‘lamiz. Bundan tashqari o‘quvchi qizlar uchun yettita umumta’lim maktabi, davlat kadrlarini tayyorlash uchun kasb-hunar maktablari tashkil etildi. Bu davrni e’tiborli jihati har bir ixtisoslik uchun alohida maktablar joriy etildi. Bunga misol qilib, 1842-yilda akusher - ginekologik maktab, 1847-yilda qishloq xo‘jaligi maktabi, 1859-yilda veterinariya maktabi, 1860-yilda o‘rmon xo‘jaligi maktabi va pochta - telegraf maktabi shular jumlasidandir. Yuqoridagi barcha jarayonlar tanzimat olib kelgan o‘zgarishlarning yirigi sifatida qarash mumkin. Zamonaviy bilimlar asosida yirik davlat arboblarni tayyorlash uchun “Mekteb-i Usmoniy” (Usmonli maktabi) nomi bilan yangi maktab ishlab chiqildi. Maktabning e’tiborli xususiyati yoshlarning chet elda o‘qishidir. Bu maktab yagona tashkil etilgan maktab bo‘lishiga qaramay, uzoq faoliyat olib bormadi. U 1864-yilda talabalarni bir xil darajada tarbiyalashi mumkinligi aniq bo‘lib qolgani tushunilganda yopildi.

Tanzimat davrida “Ta’lim to‘g‘risidagi nizom”ning ba’zi muhim moddalari quyidagilardan iborat:

3-modda - Har bir mahalla va qishloqda, musulmon-xristianlar aralashgan hududlarda kamida bitta maktab bo‘lishi, har bir jamoa uchun alohida maktab bo‘lishi lozim.

5-modda - O‘qituvchilar nizomga muvofiq tanlanadi va tayinlanadi.

9-modda - Qizlarning 6-10 yoshda, o‘g‘il bolalarning 7-11 yoshda maktabga borishi majburiydir.

13-modda - Majburiy boshlang‘ich ta’limni amalga oshirish va unga rioya qilmaydigan ota-onalarga qo‘llaniladigan jarimaga tortilishi lozim. Bolalar hech bo‘lmaganda uyida o‘qib ta’limni davom ettirishi kerak.

15-modda - Agar bir joyda ikkita boshlang‘ich maktab bo‘lsa, ulardan biri qizlar, ikkinchisi o‘g‘il bolalar uchun tashkil etilishi, agar, bo‘lmaganda bunday joylarda qizlar uchun maktablar

qurilmaguncha, o‘g‘il bolalar bilan birga tahsil olishi lozimligi belgilab o‘tilgan. 1869-yilgi Nizomning yana bir muhim xususiyati shundaki, u ta‘lim jarayonlarini qayta ko‘rib chiqqan holda Usmonli ta‘lim tizimini ma‘lum bir tartibga keltirdi hamda tenglik tamoyiliga asoslangan yondashuvlarining mahsulidir .

Ushbu davrning eng ahamiyatli taraflaridan biri ayollar uchun ta‘lim tizimida ham o‘zgarishlar bo‘lganligi bilan belgilanadi. Ayollar ta‘limi asosan ikkiga bo‘lingan. Ular “enderun” hamda “haram” kabi ta‘lim jarayonlarida olib borilgan. Enderun – imperiyaning hukmdor tabaqasining tayyorlaydigan akademiya bo‘lsa, haram – hukmdorning oila a‘zolari yashaydigan joy bo‘lishi bilan birga hukmdorning bo‘lajak rafiqalari tayyorlanadigan akademiya hisoblangan. Haramni enderundan ajratib turadigan farqi, talabalar va o‘qituvchilarning barchasi ayollardab iborat bo‘lishidir. Haramning boshlig‘i hukmdorning onasi bo‘lib, u sifatida “Volidayi sulton” hisoblanib, u ta‘lim – tarbiya ishlari bilan shug‘ullangan. Bundan shuni anglash mumkinki, usmonli davlatida ayollarning ta‘limi shu yerda amalga oshirilgan. Ayollar uchun ta‘limning yana bir shakli bu saroy ta‘limi hisoblangan. Ushbu ta‘limga saroyning yuqori amaldorlari hamda olimlarning qizlari tahsil olgan bo‘lib, qizlar va o‘g‘il bolalar birgalikda tahsil olganligini ko‘ramiz. Jamiyatda turli ayollar tomonidan turlicha maktablar tashkil etilib, unda ayollar uchun yangicha uslublar joriy etadilar. 1858 – yilgi “Maorif kengashi” ning qarorigacha qizlar uchun faqat boshlang‘ich sinf ta‘limi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, qarordan keyin o‘g‘il bolalar va qizlar uchun birga ta‘lim olishi mumkin bo‘lgan qarorlar ishlab chiqildi. Qizlar faqat boshlang‘ich ta‘limni emas, balki o‘rta maktablar, oliy maktablar tashkil etish eng asosiy vazifaga aylandi. 1859 – yilgi “Takvimi Vekayi” chiqargan qarorga binoan qizlar uchun o‘rta maktablar hamda o‘g‘il bolalarga o‘tiladigan fanlar ya‘ni notiqlik, din, hisob, tarix va geografiya kabilar ham o‘tila boshlandi. Ular uchun yana kashtachiik kurslari ham bo‘lgan .

1865- yilda Midhad Podsho tomonidan birin “Qizlar sanoatmaktabi” ochildi. 1869 – yildan sanoat maktablari ko‘payib, u yerlarda qizlarga mato ishlab chiqarish, kir yuvish, tikish ishlari o‘rgatilgan. 1879 – yildan esa xususiy sanoat maktablari ochilib, u yerda ta‘lim olgan qizlar yevropa qizlari singari til, musiqa va hunarmandchilik saboqlarini olgan. Ayollar maktablarini joriy etilishi qizlarni ham ta‘lim tizimiga olib kirish hamda ularni zamonaviy dunyo bilan tanishtirish maqsadida ham joriy etilgan .

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, usmonlilar davlatida Tanzimat davrida tamal toshlari qo‘yilgan ta‘lim tizimi zamonaviy Turkiya davlati ta‘lim tizimi uchun zamin hozirladi. Tanzimat davrining eng ko‘zga ko‘rinarli yutuqlaridan biri ham aynan ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Bu jarayon esa usmonlilar davlatini har tomondan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan yuksaklikka olib chiquvchi yoshlarni yetishtirib chiqqanligi bilan alohida diqqat sazovordir.